

## HUVAYDONING “ROHATI DIL” DOSTONI TARKIBI

**Eshkuziyeva Hilola G‘ulom qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

[luckyperson0123@gmail.com](mailto:luckyperson0123@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostonining tarkibi, dostondagi hikoyat va rivoyatlarning ma‘naviy barkamol shaxslarni kamol toptirishdagi ahamiyati haqida bayon qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** “Rohati dil”, do‘zax, islom dini, “Nurnoma”, tasavvuf, nasr.

### ANNATATION

*The article describes the composition of Khojanazar Huvaydo’s epic “Rohati Dil”, regarding the importance of stories and narratives in spiritual perfect people’s development.*

**Key words:** “Rohati dil”, hell, Islam, “Nurnama”, mysticism, prose.

Huvaydo mumtoz adabiyotimizdagi didaktik nasrchilik hamda epik dostonchilik an‘analarini davom ettirib, diniy-irfoniy manzumasini qalbni barcha g‘ubor, nuqsonlardan poklovchi “Rohati dil” deb atadi. Asarni turkiy (eski o‘zbek) tilda, she‘riyatning masnaviy janrida yaratdi. Huvaydoning “Rohati dil” dostoni pandnoma turining go‘zal namunasi hisoblanib, unda ochko‘zlik, tamagirlik, vafo, boqiylik, foniylilik, yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari, go‘zallik va mehnatsevarlik, moddiy va ma‘naviy poklik kabi xilma-xil axloqiy mavzulardagi ibratli hikoyalar keltirilgan. Dostonning “Nurnoma” bobida olamning yaratilishi, Muhammad payg‘ambar ikki olamning rahmati, mo‘minlar sarvari ekanligini; “Qiyomatnoma” deb atalgan bobida maxsharning olti qiyofasini; “Do‘zaxning sifatleri” bobida Jabroyil do‘zaxning ta‘rifini Rasulullohga bayon etadi. Do‘zaxning yetti eshigi (tamug‘, xoviya, jahannam, saqar, natto, sa‘iyr, xutama, nor)ni tavsiflaydi. Har bir eshikdan qaysi toifa odamlarning kirishini birma bir bayon etadi. Jahm eshigidan zinokorlar, yolg‘onchilar, imomiga xiyonat qilganlar, chaqimchilar tashlanadi. Zolimlar, poraxo‘r qozilar, harom luqma yegan olimlarning joyi Saqardadir. Shaytonga hamroh bo‘lganlarning o‘rni esa Luzodadir. Sa‘irda esa sharobxo‘rlar va rabo olg‘uchilar, tarozidan urib qolguvchi toifa odamlar tashlanadi. Xatmada esa Qur‘onni o‘qib, bilmay noto‘g‘ri tavsiflaganlar, hadisdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanganlar yotadilar. Yettinchisining ismi Nor bo‘lib benamozlarga ne‘mat berganlar, qo‘shnisining nasihatlarini olmaganlar, haromdan qaytmaydigan savdogarlar shu joyga keltiriladilar.

Jabroyilning ushbu hikoyatidan Rasululloh g'oyatda g'amga botganligi va ummatlarining holini o'ylab benihoya azoblanganligi tasvirlanadi.

*Ko'zining yoshidan yer suvga to'ldi,  
Bu g'amdan qomati yoydek bukildi.  
Borib hujralariga qo'ydi sajdaga bosh,  
Oqizib ummati deb ko'zidin yosh<sup>3</sup>.*

Rasululloh Xudoga yolvorib nola qilar ekan Yaratgandan ummatlarining gutohlarini kechirishini iltijo etadi. Shu o'rinda Huvaydo me'roj tunida ummat dardi bilan ko'zyosh to'kkanligini tasvirlaydi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilar ekan, zamondoshlariga kamolotga, ma'naviy xazinalarga yo'l ko'rsatishni asosiy vazifa hisoblagan. Jumladan, Huvaydo "Rohati dil" dostonini ham xuddi shu muammolarga bag'ishlagan. Ma'naviy-axloqiy, din-tasavvufiy tarbiya, inson kamoloti masalalari Xo'janazar Huvaydo ijodida asosiy o'rin egallaydi. Shoirning bu jihatdan "Rohati dil" dostoni ahamiyatlidir. Adabiyotshunosligimizda hali yetarli o'rganilmagan "Rohati dil" Huvaydoning hissiy va ruhiy kechinmalarni o'zida mujassamlashtirgan asar bo'lib, unda shoirning tarjimai holiga, ijtimoiy-siyosiy, diniy-tasavvufiy qarashlari jamuljam. Uning masnaviy yo'lda yozilgan ushbu dostoni xalq orasida mashhurdir. Muallif dostonning yozilish sababiga alohida kichkina bob bag'ishlaydi. Kitobning yozilish sabablari ham doston muqaddimasidan anglashiladi. Shoirning "Rohati dil" dostonini yozishdan maqsadi zamondoshlarini ma'naviy g'aflatdan uyg'otish.

*Kitobimning otidur "Rohati dil"  
Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil<sup>4</sup>.*

Huvaydo asarni dastlab nasrda yozgan. Keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni nazm yo'li bilan qayta yaratadi va „Rohati dil“ asari bilan dostonchilik an'analarni yanada rivojlantirib, she'riyat bilan chambarchas bog'laydi. Shoirning butun umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkiygo'y bo'lgani sababdan dostonni turkiy tilda yozishga qaror qiladi.

*Ko'ngul shahri yagona azm qildim,  
Kitobim nasr erdi man nazm qildim.  
Bu chimyon shahrining piyru javoni,  
Tamomiysi erurlar turkiyxoni,  
Alar garchi so'zga behunarroq,  
Dedim bo'lsa kitobim turkiy behroq.<sup>5</sup>*

<sup>3</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. – Б. 35.

<sup>4</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. – Б. 16.

<sup>5</sup> Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. – Б. 16.

Dostonning tarkibi 30 bob hamda Ibrohim Adham hikoyatidan iborat. Doston hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan „Rohati dil” dostoni an’anaviy tarzda Allohga hamd va payg‘ambarlarga na’t bilan boshlanadi. Shundan so‘ng chahoryorlar: Abu Bakr Siddiq r.a., Umar r.a., Usmon r.a. va Ali r.a. ta’riflari beriladi. Shundan so‘ng Hasan va Husayn raziyallohu anhumolarning ta’rifi, vafoti haqida fikr bildirar ekan Allohga iltijo etadi. Har bir bobda bo‘lgani kabi ushbu bobda ham Huvaydo insonlarni bu dunyodan yuz o‘g‘irishga, jahonga ko‘ngil qo‘ymaslikka da’vat etadi. “Rohati dil” diniy-didaktik asar bo‘lib, unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g‘oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etilgan. Mol-dunyoga hirs qo‘yish, nafsga qul bo‘lishning oqibatlari, bilim olishning ulug‘ligi, ilm ahli izzatini o‘rniga qo‘yish, ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish, qo‘ni-qo‘shnilarning bir-biriga mehr oqibatli bo‘lishi, er-u xotinning bir-biriga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatini joyiga qo‘yishi, riyokorlik, xiyonat, tamagirlik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi fazilat-u qusurlar asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qisqa hajmli hikoyalarda xalqona uslubda sodda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. “Rohati dil” dostoni badiiy jihatdan teran va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan adabiy manbadir. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she’rning jarangdor va o‘ynoqiligini rang-barang bo‘yoqlar orqali ochib beradi “Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsa-da tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyalar orqali insonning ongi hamda uning tashqi va ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. “Rohati dil” asarining asosiy g‘oyasini insonning ichki dunyosini shakllantirish, eng avvalo, insonda e’tiqodning sobit o‘rin olishini, so‘ngra islom dini ruknlariga ongli ravishda amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Dostonga kirgan har bir hikoya va uning qahramoni o‘ziga xos ilohiy tuyg‘ular bilan to‘lib-toshgan. Bunday omil asar obrazlarining hayajonli va to‘laqonliligini ta’minlagan. Hikoyalarning deyarli hammasida voqealarning ishtirokchilari muallifning falsafiy e’tiqodi bilan chambarchas bog‘langan insonlardir. Ular ichki guruhlariga bo‘linadilar: birinchi guruhdagilar iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik kabi fazilatlar timsoli sifatida rivoyatlarda ishtirok etsalar, ikkinchi toifadagilar buning teskarisi, ya’ni g‘azab-nafrat uyg‘otadigan qiyofadagi obrazlardir. Asar boshdan-oyoq o‘quvchilar qalbida eng nozik his tuyg‘ularni uyg‘otadi, ularda hayotga muhabbat, iymonli, pok e’tiqod egasi bo‘lishga chorlaydi. Kitobda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning aksariyati o‘z manbasiga ega va ular tarixiy kitoblardan olingan. Shuningdek, asardagi turli qiziqarli va ibratomuz voqealar asar qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog‘lanib ketadi. Har bir inson o‘z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko‘ra ma’lum bahoga

sazovor bo‘ladi. Asarning markazida, musulmon olamidagi Alloh yaratgan banda – inson yotadi. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she’rning jarangdor va o‘ynoqligini rang-barang bo‘yoqlar orqali ochib beradi. Dostondagi har bir misra o‘quvchini to‘lqinlantiradi, undagi chuqur mazmuni idrok etishga chorlaydi.

Xo‘janazar Huvaydo o‘z asarlarida Qur‘on oyatlari, Hadis hikmatlari va shariat ahkomlarini badiiy vositalar va yorqin timsollar vositasida targ‘ib qilishga harakat qiladi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda she’rda Qur‘on va hadis so‘zlarining ishlatilishi alohida san‘at hisoblangan, ya’ni biror bayt yoki misrada talmi’ san‘ati emas, boshqa bir mustaqil san‘at iqtibos san‘atidan foydalaniladi. A.Hojjahmedov o‘zining “She’riy san‘atlar va mumtoz qofiya” asarida iqtibos san‘ati haqida shunday deydi: “Ilm o‘zlashtirmoq” ma’nosidagi bu so‘z Qur‘on oyatlari va payg‘ambar hadislarini she’r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she’rda ifodalash san‘ati nomidir. Musulmon mamlakatlarning shoirlari bu usulga keng murojaat qilib, o‘zlarining lirik va liro-epik asarlarida oyatlar va hadislarni keltirganlar. Hadislarga bag‘ishlab yozilgan “Arbain”lar ham iqtibos usulida yaratilgan”<sup>6</sup>. Huvaydo ham dostonning ayrim o‘rinlarida Qur‘on oyatlari hamda hadislardan keng foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Huvaydo she’r vazni talablari hamda asarni turkiy tilda yozganligi sababli ham ayrim o‘rinlarda ularning tarjimasini keltiradi. Oyat, hadis so‘zlarini juz‘iy o‘zgarishlar bilan she’rda keltirish usulini Ataulloh Husayniy iqtibos san‘atining bir turi deb hisoblaydi. Ataulloh fikri bo‘yicha aqd (arab., turg‘un bog‘lamoq, javohirlarni ipga tizish) nasr javohirlarini nazm rishtasiga tizmoq bo‘lsa, Koshifiy iqtibos va aqd o‘rtasidagi tafovut haqida shunday yozadi: “Iqtibos – Qur‘on (oyatlari) va hadisni aynan keltirishdir. Va aqdda so‘z o‘zgartiriladi”.

Huvaydo o‘z nuqtai nazarlarini bayon etish jarayonida Qur‘on va hadisga murojaat qiladi. Qur‘oni karim va payg‘ambarimiz (s.a.v) hadisi shariflari jamiyat ma’naviyatining ajralmas va muhim qismiga aylangani odamlarning ongiga singdirilgani va kundalik hayotning hamma sohalarida qo‘llanilganligi uchun ham she’riy tarzda bayon etadi. Musulmon dunyosida amalga oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning “Bismillohir rahmonir rahim” ilohiy jumlasini bilan boshlanishi muqaddas an’anadir. Alouddin Mansur bu suraning fazilatlarini haqida shunday yozadi: “Qur‘ondagi suralarning joylashishi tartibida avvalgi o‘rinda turgani vav qisqa bo‘lishiga qaramasdan Qur‘onning asosiy mazmun mohiyatini o‘zida mujassam etgani uchun ham u Qur‘on mazmunini ochuvchi deb nomlangan”<sup>7</sup>. “Bismillohir rahmonir

<sup>6</sup> Hojjahmedov A. She’r san‘atlari va mumtoz qofiya. – T.: O‘qituvchi, 1999. -B. 60-61.

<sup>7</sup> Qur‘oni Karim ma’nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A. Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. – B. 534.

rohim” jumlasini bilan doston yozgan ijodkor Nizomiy Ganjaviy hisoblanadi. Amir Xusrav Dehlaviy ham “Matla’ ul-anvor” da ham “Bismillohir rahmonir Rahim” jumlasini bilan boshlaydi. Ta’kidlash joizki, Xo’janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostoni Sharq adabiyotining mumtoz vakillari bo’lmish Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiyotlaridagi “Mahzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuxfat ul-axror”, “Hayrat ul-abror” dostonlaridan ilhomlanish natijasida maydonga kelib, uning tuzilishi (maqolat va hikoyatlar, masallar) ham, ijtimoiy va axloqiy muammolarning o’rtaga qo’yilishida ham umumiylik borligi ko’zga tashlanadi. Yuqorida tilga olingan dostonlar yoki shoirlarning ijodidagi asosiy mushtaraklik axloqiy-ta’limiy fikrlarni ifodalash, komil insonni tarbiyalashga bosh vazifa sifatida qarashdir. Huvaydoning “Rohati dil” dostonida ilmi kalom va ilmi fiqhda zikr etilgan masalalarni bayon qilishda So’fi Olloyorning “Sabot ul-ujizin” asariga yaqin turishini kuzatishimiz mumkin. Har ikkala asarda ham insonlarning e’tiqodi, iymoni, diyonatini mustahkamlashni, ularning o’zligini va Xoliqni tanish bilan bog’liq masalalar haqida fikr yuritilganligi ko’zga tashlanadi.

Xo’janazar Huvaydoning o’zbek adabiyoti tarixida o’ziga xos munosib o’rni bor. “Rohati dil” dostoni esa o’zining diniy-axloqiy va didaktik mazmuni bilan nafaqat diniy ilmlar, balki boy adabiyotimiz tarixini yangicha o’rganish uchun ham bebaho durdonadir. Bu dostonni o’qigan har bir kishi o’zining ichki ma’naviy dunyosini poklashga intiladi, qalbida mujassamlangan insoniylik tuyg’ularini harakatga soladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. *Хувайдо. Роҳати дил. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси”, 1994. 119 б.*
2. *Hojiahmedov A. She’r san’atlari va mumtoz qofiya. – T.: O’qituvchi, 1999.*
3. *Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A.Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001.*